

31-Mavzu: MDH davlatlari aholisi demografik vaziyati

Reja:

1. MDH mamlakatlarining aholi rivojlanish prognozi
2. MDH mamlakatlari demografik siyosatining o'ziga xos xususiyatlari


Har bir mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy holatiga demografik vaziyat bevosita ta'sir ko'rsatadi. Davlat ijtimoiy va iqtisodiy siyosati, islohotlar yo'nalishi belgilanishida demografik ko'rsatkichlar e'tiborga olinishi lozim. MDH mamlakatlari aholisini yillar bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, ba'zilarida tez sur'atlarda o'sish, ba'zilarida esa qisqarishini ko'rish mumkin. Aholi sonini demografik prognozi- aholi harakati parametrlariga asoslangan holda aholining kelajakdagi holatini ilmiy asoslarini ishlab chiqish demakdir. MDH mamlakatlari aholi sonining demografik prognozi to'g'risida turlicha tahlillar mavjud bo'lib, haligacha MDH aholisi soni aniq qancha ekanligi rasmiy ravishda e'lon qilinmagan. Bunga sabab mintaqaning o'n bir davlatidan yettitasida aholi soni ro'yxatdan o'tkazilgan. Qolgan to'rttasi to'g'risida esa eski ma'lumotlar- ga murojaat qilish mumkin. MDH mamlakatlari aholi soni 2009 yilda MDH aholisi 280 mlanni tashkil etgan bo'lsa, 2012 yilga kelib, u 279 mlanni tashkil etishi prognoz qilingan edi. Ammo bu to'g'risida ma'lumotlar turlicha. XV F ma'lumotlariga ko'ra, 275,802 kishini tashkil etishi aytilgan. Aholini demografik prognozi shuning uchun ham kerakki, kelajakda aholi sonining taxminiy darajasini aniqlash va shunga asoslangan holda iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning ustuvor vazifalarini belgilab olishdan iboratdir.

MDH mamlakatlari umumiy aholi soni 2050 yilga kelib, 277 mlndan 257 mlnga pasayishi prognoz qilinmoqda. 2008-yilda aholi o'rtacha sonining o'sishi prognozini hisoblash qayta ko'rib chiqildi, MDH mamlakatlaridan 5 ta davlatda: Tojikistonda o'rtacha yillik 0,5%, Turkmaniston va O'zbekistonda 0,2%, Qozog'iston va Qirg'izistonda 0,1% o'sish saqlanib qolishiga qaramasdan, o'sish sur'atlarining

pasayishi kuzatilmoqda. Boshqa mamlakatlarda aholi o'lim darajasi kutilmoqda, Belorussiyada yillik -0,9% ni tashkil etadi. Umumiy o'sish koeffitsientlarining o'zgarishi ko'rsatkichlari aholi migratsiyasi o'sishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Aholi prognozining tahlillariga ko'ra bu haqda uning o'sishi to'g'risida aytib o'tilgan edi, ammo migratsiya o'sishining pasayishi kuzatildi, MDH mamlakatlari aholisining o'sishi keng ko'lamdagi tabiiy ishlab chiqarish asosida belgilanadi. MDH mamlakatlarining demografik turdagi imkoniyatlaridan biridir. Bu esa mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro mehnat resurslari eksportini ishlab chiqarishning turli sohalaridagi aholi evaziga ta'minlashning qulay turlaridan biridir Prognoz hisob-kitoblari shuni ko'rsatmoqdaki, Rossiya aholisi 2050 yilga borib 116 mlngacha qisqarishi mumkin, bu esa MDH mamlakatlari umumiy aholisining 1990 yil 53% va 2010 yil 51% dan 45% gacha kamayishiga olib keladi. Ukraina aholisi son jihatdan MDH mamlakatlari orasida ikkinchi o'rinda bo'lib, 35 mlanni tashkil etadi, ammo tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki u o'z o'rnini uchinchi o'ringa bo'shatib berishi t mumkin. 2050-yilga borib, 36,4 mln aholi sonining tez sur'atlarda o'sishi bilan O'zbekiston ikkinchi o'rinni egallashi mumkin.

1-jadval

1950-2050 yillarda MDH mamlakatlari umumiy aholi sonining o'sishi, 2008-yilga nisbatan % hisobida.




Tojikiston aholisining tez sur'atlarda o'sishi va 2050 yilga kelib 11 mlnga

yetishi mumkin. Bu kabi holat asrning o'rtalarida Qozog'iston aholi sonining barqaror o'sishi natijasida 18 mlnga yetishi kuzatilmoqdaki, u o'zining aholi soni jihati bo'yicha to'rtinchi o'rnini dadillik bilan egallab turadi. Albatta, bu kelgusida

2-jadval

MDH mamlakatlari aholi sonining (Rossiyadan tashqari) 1950-2050 yillarda BMT o'rtacha prognozi, mln kishi.



Agarda Ukrainada o'rtacha va yuqori o'sish sodir bo'lsa, O'zbekistonda esa o'sish pasaysa, oxir-oqibatda Ukraina O'zbekiston aholisi sonidan o'tib ketishi bashorat qilinmoqda-mos ravishda 4 va 9 millionga.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki Moldova aholisi to'rt xil ko'rinishda prognozlashga bo'linadi, biroq yuqori tug'ilish o'nini o'lim ko'rsatkichi egall'iziashi mumkin. Qirg'iziston aholisida o'sish davom etadi, ammo 2030 yilga kelib aholi soni o'shining pasayishi, 1940-yildan esa aholi soni qisqarishi bashorat qilinmoqda.

Kavkazoldi mamlakatlari aholi sonining o'zgarishi turli xil tendensiyalami o'zida aks ettiradi. Gruziya aholisi ko'payishi bashoratlashning to'rt bosqichida ham mavjuddir, Armaniston aholisi esa o'rtacha barqaror o'sish sur'atlarini o'zida saqlab qoldi, ammo uning aholi soni doimiy va past darajadagi o'sish sur'ati qisqarishi mumkin, yuqori o'sish esa jadallashadi. Ozarbayjon aholisi esa yuqori o'sish sur'atlari bilan ajralib turadi. 2030-yildan boshlab aholi soni qisqarishi mumkin va u taxminan 10,6 mlanni tashkil etadi.

MDH mamlakatlari umumiy aholi soni prognozi 277 mlndan 2010 yilda 257 mlnga, 2050 yilda esa 20 mln yoki 7% ga qisqarishi bashorat qilinmoqda. MDH mamlakatlari aholi soninig bu qadar kamayib ketishiga turli xil mintaqaviy mojarolar demografik, ijtimoiy, siyosiy va migratsion omillar sabab qilib ko'rsatilmoqda.

2. MDH mamlakatlari demografik siyosatining o'ziga xos xususiyatlari
MDH mamlaktlarida mavjud demografik vaziyatni yaxshilash, hamda tegishli chora tadbirlar ishlab chiqish borasida bir qator keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. MDH mamlakatlari hukumati tomonidan bugungi kunda aholining turmushini yaxshilash maqsadida, ijtimoiy sohani modernizatsiya qilishga o'tildi. Bugungi dolzarb muammolardan biriga aylanayotgan demografik muammolar, ya'ni aholi sonining kamayib ketishi, natijada, mehnat resurlarining yetishmovchiligi, aholi qatlamining qarish jarayoni har bir mamlakat oldiga kuchli demografik siyosat olib borish va bu kabi muammolarni bartaraf etishni muhim vazifa sifatida qo'yadi. Demografik siyosat - mamlakat aholisining son va sifat

tarkibini tartibga solishga qaratilgan davlat chora-tadbirlarining majmuasidan iborat. Demografik siyosat orqali mamlakatlarning quyidagi siyosiy maqsadlariga erishiladi:

- Mintaqa ichida siyosiy barqarorlikni ta'minlash
- Mintaqa bo'ylab demografik muammolarni birgalikda bartaraf etish .

Ikkinchi punktga alohida to'xtalib o'tish lozim. Rossiya MDH mamlakatlari ichida aholi soni jihatidan birinchi o'rinni egallaydi. Ammo bugungi kunga kelib uning aholisi keskin kamaymoqda. Natijada, Rossiyaning boshqa davlatlarga mehnat resurslari jihatidan bog'liqligi oshib boradi. Bu muammoning oldini olishda aholi sonini oshirish lozim. Bunda asosiy va real yechim migrantlar hisobiga hududlarni o'zlashtirilishi ko'rsatkichlarini oshirish. Bunda ma'lum hududlarga istiqomat qilish niyatidagi aholiga turli imkoniyat va imtiyozlar taqdim etiladi. Amalda 2010 yilning Rossiyada Uzoq Sharq mintaqasini rivojlantirish yillik dasturi joriy etilgani bilan ham izohlash mumkin. 2.2 bo'limda turli aholi punktlarining rasman yo'q deb e'lon qilinayotgani haqida statistik ma'lumotlar keltirildi. Mutaxassislar fikricha, shu kabi aholi punktlarining aholisi uchun turli imtiyozli foizsiz kreditlar, hatto subsidiyalar taqdim etish kerakki, ular aynan shu joylarda hayot faoliyatlarini yo'lga qo'yib olsinlar va mintaqaviy taraqqiyotga o'z hissalarini qo'shsinlar. Bundan tashqari mintaqada olib borilayotgan aholi bandligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar ham demografik muammolarni oldini olishga zamin yaratadi.

MDH davlatlarida aholining bandlik darajasini oshirish yo'lidagi ko'rilayotgan chora tadbirlar.

Rossiyada aholini bandligini ta'minlash maqsadida qator qonunlar chiqarilmoqda, xususan "Rossiya Federatsiyasida aholi bandligi to'g'risidagi" qonunni misol qilishimiz mumkin. Rossiya Federatsiyasida barcha sohalarda (xizmat ko'rsatish, sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish va h.k.) shaxslarning erkin faoliyat olib borishlariga davlat keng imkoniyatlar yaratib bermoqda. Ammo xizmat faoliyati qonun doirasidan chetga chiqmagan holda amalga oshirilishi shartdir.

Bellarussiya Respublikasining 2006-yil 15-iyunda qabul qilgan “Bellarusiya Respublikasida aholining bandligi to’g’risidagi” qonunini keltirishimiz mumkin.

Bu qonunga muvofiq band aholi kategoriyasiga 3 yoshgacha bo’lgan bolalarga qarovchilar, 18 yoshgacha bo’lgan nogiron bolalarga qarovchilar va hamda 18 yoshgacha bo’lgan SPID bilan kasallangan bolalarga qarovchilar va shu kabilarni kiritilishi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Qozog’iston Respublikasida esa, band fuqaro deb faqatgina oylik ,ish haqi (mehnat daromadi) keltiradigan faoliyat bilan shug’ullanuvchi shaxslar hisoblanadi.

Ozarbayjon Respublikasida mehnat bilan topilmagan daromad ham hisobga olinadi. Ozarbayjon Respublikasida 26.06.1991 da qa’bul qilingan “Ozarbayjon Respublikasida bandlik to’g’risidagi qonun” ida keltirilishicha band fuqarolar kategoriyasiga o’z yer xo’jaligiga ega bo’lgan shaxslarni kiritish mumkin.

Ukraina Respublikasidagi kabi Armaniston Respublikasida ham 27.12.1991 yilda qa’bul qilingan “Armaniston Respublikasida bandlik to’g’risidagi qonun” da faoliyat daromad keltirishi lozim, lekin bu miqdor belgilangan eng kam oylik ish haqidan kam bo’lmasligi lozim.

Tojikiston Respublikasida 22.05.1998 da qa’bul qilingan “Aholining bandligi to’g’risidagi qonun” ida ta’kidlanishicha bandlik deb faqatgina mehnatga layoqatli shaxslarning faoliyati tushuniladi.

O’zbekistonda aholini bandlik darjasini oshirish yo’lida qator rejalar amalga oshirilmoqda. Misol qilib aytadigan bo’lsak yangi korxonalar qurilishi bilan yangi ish o’rinlari vujudga kelishi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati bilan erkin tarzda shug’ullanishni taminlashidir.

Bugungi kunda MDH mamlakatlari oldida turgan muhim vazifa bu aholini ijtimoiy qo’llab-quvvatlash, uning mehnatga bo’lgan layoqatini oshirish orqali mavjud demografik muammolarning oldini olish chora-tadbirlarini birgalikda ishlab chiqishdir. Chunki mintaqaning biror bir davlatida kuchli demografik

muamo yuzaga kelsa, bu o'z navbatida, mintaqaning barcha davlatlariga ta'sir ko'rsatadi.

MDH mamlakatlarining demografik rivojlanishi prognozi tahlillari shuni ko'rsatmoqdaki, mintaqada aholi soni so'ngi yillarda kamayish tendensiyasiga egadir. Bu holat esa kelgusida mintaqaning istiqboldagi ijtimoiy-islohotlar yo'nalishida asosiy e'tibor nimalarga qaratilishi lozimligini belgilab berdi. Birgina 1992-yildan 2005-yilgacha bo'lgan davr oralig'ida mintaqada aholisi sonining sezilarli darajada kamaygani, hamda aholining tabiiy harakatida, asosan, o'lim ko'rsatkichining yuqoriligi bilan xarakterlanadi. Bu esa kelajakda ishlab chiqarishning muhim omillaridan biri hisoblangan ishchi kuchi tanqisligiga olib keladi. Natijada mamlakatlar bu ehtiyojni mintaqadan tashqarida tashqi migratsiya hisobiga qondiradilar. O'z-o'zidan turli millat vakillari o'rtasida siyosiy nizolar ham kelib chiqadi.

Bugungi kunda MDH mamlakatlarida aholining istiqboldagi sonini aniqlash shuning uchun ham ahamiyatli, kelajakda aholi sonining o'zgarishi mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotiga ta'sirini o'rganish, tegishli xulosalar chiqarish, dasturlar ishlab chiqishdan iboratdir. Bu borada MDH mamlakatlari Statistika qo'mitasi faoliyat olib boradi. Qo'mitaning ma'lumotlariga ko'ra, MDH mamlakatlari aholi sonining bu qadar kamayib ketishiga turli xil mintaqaviy mojarolar demografik, ijtimoiy, siyosiy va migratsion omillar sabab qilib ko'rsatilmoqda. Yuqoridagi MDH mamlakatlari ning 1990-2050 yilga mo'ljallangan prognozidan shunday xulosa kelib chiqadiki, istiqbolda aksariyat MDH mamlakatlarida aholi soni o'sishining pasayishi taxmin qilingan. Ba'zi yuqori o'sish darasidagi davlatlar ham bu davrga kelib aholi sonidagi ma'lum o'zgarishlarga uchraydi. Birgina Rossiya to'g'risidagi prognozlarda 2050-yilga borib Rossiya aholisining 116 mln deb prognoz qilinganining o'zi ham katta muammolardan biridir. Chunki Rossiya mintaqaning eng strategik ahamiyatga ega bo'lgan davlatlaridan biri hisoblanishi, bilan bir qatorda aholi soni bo'yicha dunyoning yirik davlatlari qatoridan yettinchi o'rinni egallaydi. Bu esa uning

uchun katta yo'qotish bo'libgina qolmasdan, kelajakda Rossiya aholisining xalq sifatida o'z ahamiyatini yo'qotishiga ham sabab bo'lishi mumkin. Rossiya aholisining qisqarishiga asosan uch omillar asos qilib ko'rsatilmoqda.

-demonstratsion omillar, ya'ni demografik o'tish bosqichi, boshqacha qilib aytganda, nul-o'sish teoriyasining mavjudligi;

-ijtimoiy-iqtisodiy omillar, ijtimoiylashuv emas, balki ijtimoiy himoyani kuchaytirish zarurligi

-ijtimoiy-tibbiy omillar, aholi salomatligiga e'tiborni kuchaytirish, alkogolizm, narkotik moddalarni iste'mol qilishni cheklashga qaratilgan choratadbirlar;

Rossiya tajribasi shuni ko'rsatadiki, haddan tashqari iqtisodiyotning ijtimoiylashuvi ham aholining mehnatga layoqatini susaytirishi mumkin. Bunga misol qilib, Rossiyadagi oila institutlarining inqirozi, keksalar soning ortib ketishi, ayollarda tug'ish qobiliyati va istagining susayishi bunga yorqin misoldir. Aholini demografik prognozini to'g'ri tahlil qilish, kelgusida MDH mamlakatlariga demografik tahdidlarning oldini olishga yordam beradi. Masalan, kelajakda aholining urbanistik harakati ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, O'zbekiston aholisini olib qaraydigan bo'lsak, mustaqillik yillarigacha aholining qariyb 60% qishloqlarda istiqomat qilsa, shahar aholisi 40% ni tashkil etaredi. Endilikda teskari tendensiyan kuzatish mumkin. 2050-yilga mo'ljallangan MDH mamlakatlari aholi prognozlaridan yana shu narsa aniqki, kelgusida mintaqada aholi soni bo'yicha liderlik qilayotgan mamlakatlar kelgusida o'z o'rnini boshqa bir davlatga bo'shatib berishi mumkin. Masalan, Ukraina mana shunday davlatlar qatoriga kiradi. Aholi soni prognozi kelajakda aholi soni o'zgarishidagi muammolarni oldindan bartaraf etish va uning iqtisodiyotga ta'sirini kamaytirishga yordam beradi. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, mintaqadagi demografik vaziyat MDH mamlakatlari o'rtasidagi iqtisodiy bog'liqlik darajasini yanada kuchaytiradi, aloqalarni chuqurlashtirib, rivojlanib borishiga sabab bo'ladi. Hududda yagona integratsion tashkilotning amalda ham faoliyatiga zamin

yaratadi.

Tayanch so'zlar: Demografik vaziyat, MDH mamlakatlari, demografik prognoz, MDH aholisi, Kavkazoldi mamlakatlari, demografik siyosat, Rossiya, Bellarussiya, Qozog'iston, Ozarbayjon, Ukraina, Tojikiston, O'zbekiston

Nazorat va muhokama savollari:

1. MDH mamlakatlaridagi demografik vaziyatga baho bering?
2. Rossiyada qanday demografik vaziyat kuzatilmoqda?
3. MDH mamlakatlari demografik siyosatining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Агентство республики Казахстан по статистике. Казахстан и страны СНГ. Ежеквартальный журнал, 1/2012
2. demoscope@demoscope.ru
3. R&F Agency Inc rasmiy sayti ma'lumotlari
4. Ломакин В. К. "Международные экономические отношения". 2008г.
5. Shodiev R .X. "Jahon iqtisodiyoti". 2004y.

Internet saytlar:

www.google.ru

www.undp.com

www.cisstat.com